

**“UZTRANSGAZ” AJ: MOLIYAVIY BARQARORLIK TAHLILI VA NI
MUSTAHKAMLASH CHORALARI**

Baymuxamedova Gulnoza Fattaxovna

Toshkent kimyo-texnologiya institute katta o‘qituvchisi

Email:gulnozabojmuhamedova@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0008-0345-0003>

Berdiqulov Suhrob Berdiqul o‘g‘li

Sanoat muhandisligi va menejmenti fakulteti 23-63 MT guruh talabasi

Toshkent kimyo-texnologiya instituti

Email: suhroberdiqulovich@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0001-2281-3200>

<https://doi.org/10.5281/zenodo.1570910>

Annotatsiya. Ushbu maqolada “UZTRANSGAZ” AJning moliyaviy barqarorligi tahlil qilinib, uning asosiy ko‘rsatkichlari orqali kompaniyaning moliyaviy holati baholanadi. Shuningdek, moliyaviy xatarlarni kamaytirish va barqarorlikni mustahkamlash bo‘yicha amalga oshirilishi mumkin bo‘lgan chora-tadbirlar taklif etiladi. Maqolada moliyaviy tahlil usullari, jumladan likvidlik, rentabellik va samaradorlik ko‘rsatkichlari asosida tahlil olib boriladi.

Kalit so‘zlar: moliyaviy barqarorlik, iqtisodiy holat, rentabellik, kapital, aktiv, sof foyda, sof daromad, qarz, sanoat, neft-gaz, transport, ta’midot, eksport.

Kirish. Moliyaviy barqarorlik — bu korxonaning o‘z moliyaviy majburiyatlarini vaqtida va to‘liq bajarish, faoliyatini o‘z mablag‘lari hisobiga davom ettirish, moliyaviy muammolarga duch kelmaslik qobiliyatidir. U korxonaning uzoq muddatli rentabelligi va mustahkam moliyaviy holatini anglatadi.

Moliyaviy barqarorlikning asosiy ko‘rsatkichlari:

1. O‘z mablag‘lar ulushi – korxonaning umumiy kapitalidagi o‘z mablag‘lar hissasi.
2. Qarzdorlik darajasi – korxonaning qarzga bog‘liqlik darajasi.
3. Likvidlilik ko‘rsatkichlari – qisqa muddatli majburiyatlarni qoplash qobiliyati.
4. Rentabellik – foyda olish darajasi.
5. Naqd pul oqimlari – daromad va xarajatlar oqimi muvozanati.

Korxona va tashkilotlar uchun moliyaviy barqarorlik juda muhim o‘rin tutadi. Chunki, korxonaning salohiyati, darajasi va o‘rnii uning iqtisodiy axvoliga bog‘liq. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, korxona va tashkilotlarda moliyaviy barqarorlik va iqtisodiy xavfsizlikni oshirish uchun amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar uning salohiyati va darajasini ham belgilab beradi. Biz ushbu maqolada “UzTransgaz” AJ misolida korxonaning moliyaviy barqarorligi, uning tahlil qilinishi va mustahkamlash uchun amalga oshiriladigan chora-tadbirlar haqida o‘rganib chiqamiz.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada “UzTransGaz” AJ ning moliyaviy barqarorligi va iqtisodiy o‘rnini aniqlashda va tahlil qilishda turli xil iqtisodiy ko‘rsatkichlar(sof foyda, aktivlar, qarz va kapital rentabelligi, sof daromad)dan, moliyaviy ma‘lumotlardan foydalanib, SWOT va shunga o‘xhash tahlil metodlaridan foydalanildi. Bu tahlillar asosida amalga oshirilishi kerak bo‘lgan chora-tadbirlar tahlil qilindi.

Tahlil va natijalar. "UzTransGaz" aktsiyadorlik jamiyati — O‘zbekiston Respublikasida tabiiy gazni transport qilish, saqlash va taqsimlash bo‘yicha faoliyat yurituvchi yirik davlat kompaniyasıdir. Bu korxona 1992- yili tashkil etilgan bo‘lib, uning asosiy vazifasi — respublika hududlari hamda eksport bozorlariga tabiiy gazni uzlusiz yetkazib berishni ta’minlashdan iborat.

"UzTransGaz" AJ O‘zbekistondagi magistral gaz quvurlari tizimini boshqaradi va texnik xizmat ko‘rsatadi. Shuningdek, kompaniya tabiiy gazni qayta ishslash, sig‘imlarda saqlash va eksport qilish bilan ham shug‘ullanadi. Uning tarkibida bir nechta mintaqaviy filiallar va muhandislik korxonalari mavjud.

Kompaniya energetika sohasidagi islohotlar doirasida moliyaviy barqarorlikka erishish, samaradorlikni oshirish va zamonaviy boshqaruv usullarini joriy etish ustida ish olib bormoqda.

Quyidagi jadvalda esa “UzTransGaz” AJning so‘nggi 9 yillikdagi asosiy moliyaviy ko‘rsatkichlari keltirilgan:¹

Ko‘rsatkichlar	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023
Sof foyda(%)	23,7	21,65	-13,32	2,54	-10,58	-20,11	-13,69	-13,07	57,7
Kapital rentabelligi(%)	10,52	13,51	-14,17	7,19	-98,32	116,77	44,09	27,6	10715,33
Aktivlar rentabelligi(%)	7,89	10,02	-5,64	1,26	-5,53	-13,83	-8,14	-6,3	24,21
Qarz nisbati(%)	24,99	25,81	12,98	82,53	94,37	111,84	118,47	122,84	99,77
Qarzning kapital nisbati(%)	33,31	34,78	32,6	472,3	1677,22	-944,4	-641,45	-537,78	44152,07

Yuqorida jadvaldagagi moliyaviy ko‘rsatkichlar korxona iqtisodiy axvolini belgilab beradi. Moliyaviy barqarorlikni ta’minlash va uni mustahkamlash uchun korxona tomonidan yillar davomida chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Quyidagi ma’lumotlarda “UzTransGaz” AJ tomonidan moliyaviy barqarorlikni ta’minlash uchun amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar keltirilgan:

1. Xarajatlarni optimallashtirish: Ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish xarajatlarini kamaytirish orqali resurslardan samarali foydalanish.
2. Moliyaviy intizomni kuchaytirish: Buxgalteriya hisobi, audit va nazorat tizimlarini takomillashtirish orqali moliyaviy shaffoflikni ta’minlash.
3. Zamonaviy texnologiyalarni joriy etish: Energiya tejamkor va innovatsion texnologiyalar orqali xarajatlarni kamaytirish va daromadni oshirish.
4. Tashqi investitsiyalarni jalb qilish: Mahalliy va xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlikda investitsion loyihalarni amalga oshirish.

¹ Openinfo.uz
“O‘ztransgaz” aksiyadorlik jamiyati

5. Qarzdorlikni boshqarish: Qarz yuklamasini kamaytirish, kredit portfeli va to‘lov intizomini barqaror saqlash.

6. Gaz yetkazib berish hajmini oshirish: Ichki va tashqi bozorlarda gaz eksportini kengaytirish orqali daromad bazasini mustahkamlash.

7. Ichki boshqaruv tizimini takomillashtirish: Korporativ boshqaruv, risklarni boshqarish va samaradorlikka asoslangan boshqaruv tizimlarini rivojlantirish.

Yuqorida keltirilgan 1-jadvaldan va korxona iqtisodiy ko‘satkichlaridan foydalanib, bazis va zanjirsimon davrni hisobga olgan holda SWOT tahlilini quyidagi 2-jadvalda ko‘rib chiqamiz

S(Strengths)-Kuchli tomonlari	W(Weakness)-Zaif tomonlari	O(Opportunities)-Imkoniyatlar	T(Threats)-Xavf omillari
<p>2023-yilda soʻf foya (57,7%) va kapital rentabelligi (10715,33%) keskin oshgan, bu esa kompaniyaning daromad olish salohiyati ortganini ko‘rsatadi</p> <p>2020–2023 yillarda kapital rentabelligi barqaror musbat holatda bo‘lgan, bu esa investitsiyalarning samaradorligini ifodalaydi.</p> <p>2023-yilda aktivlar rentabelligi 24,21% gacha ko‘tarilgan, bu esa korxona aktivlaridan samarali foydalanayotganini anglatadi.</p> <p>Keng infratuzilmaga ega bo‘lishi va davlat qo‘llovi — kompaniyani strategik jihatdan mustahkam qiladi.</p>	<p>2017–2022 yillar oralig‘ida soʻf foya va aktivlar rentabelligi manfiy bo‘lgan, bu moliyaviy samarasizlik va xarajatlarning yuqoriligini ko‘rsatadi.</p> <p>Qarz nisbati 2020–2022 yillarda 100%dan oshgan, bu moliyaviy risklarni kuchaytiradi.</p> <p>2019–2022 yillarda qarzning kapitalga nisbati salbiy yoki juda yuqori bo‘lgan, bu esa moliyaviy mustaqillikning yo‘qligini ko‘rsatadi.</p> <p>Iqtisodiy tebranishlarga juda sezuvchan moliyaviy tuzilma.</p>	<p>2023-yilda moliyaviy ko‘rsatkichlarning keskin yaxshilanishi kompaniya uchun yangi investitsion imkoniyatlar yaratadi.</p> <p>Energiya eksportini oshirish orqali barqaror valyuta tushumlari ta’minlanadi.</p> <p>Yangi texnologiyalarni joriy etish va modernizatsiya orqali xarajatlarni kamaytirish imkoniyati mavjud.</p> <p>Yevroosiyo gaz tranzitidagi strategik holat kompaniyaga mintaqaviy bozorda ustunlik beradi.</p>	<p>Qarzdorlik darajasining yuqoriligi kompaniyaning likvidligi va to‘lovga qobiliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.</p> <p>Energetika sektoridagi narx tebranishlari moliyaviy barqarorlikni izdan chiqarishi mumkin.</p> <p>Siyosiy va tashqi bozorlardagi o‘zgarishlar, xususan eksportga qaramlik – barqarorlikka xavf tug‘diradi.</p> <p>Ichki boshqaruvdagи zaifliklar investitsiyalarning kutilgan samaradorligini kamaytirishi mumkin.</p>

"UzTransGaz" AJ tomonidan amalga oshirilayotgan moliyaviy va boshqaruv islohotlari natijasida quyidagi muhim iqtisodiy va sanoat o'zgarishlari kuzatilmogda:

1. Moliyaviy barqarorlikning mustahkamlanishi: Xarajatlarni optimallashtirish va daromad bazasini kengaytirish hisobiga korxonaning sof foydasi oshib bormoqda. Bu esa ichki investitsion faoliyatni moliyalashtirish imkonini yaratmoqda.

2. Gaz eksporti hajmining oshishi: Tashqi bozorlar bilan faol hamkorlik natijasida, xususan Xitoy, Qozog'iston va boshqa qo'shni davlatlarga gaz eksporti ko'lami kengaymoqda. Bu esa davlat byudjetiga tushumlar oshishiga hissa qo'shmoqda.

3. Texnologik modernizatsiya: Magistral gaz quvurlarida zamonaviy monitoring va avtomatik boshqaruv tizimlari joriy etilib, gaz yo'qotishlari va avariaviy holatlar sezilarli kamaydi.

4. Energiya tejamkorlik darajasining oshishi: Energiya samaradorligi yuqori bo'lgan texnika va uskunalarining joriy etilishi natijasida energiya sarfi kamayib, umumiyl ishlab chiqarish xarajatlari pasaygan.

5. Yangi loyihalarning amalga oshirilishi: Moliyaviy barqarorlik va xorijiy investitsiyalar asosida yangi gaz quvurlari, kompressor stansiyalari va gaz saqlash inshootlari qurilmoqda.

6. Ishchi o'rinalining ko'payishi va kadrlar salohiyatining oshishi: Yangi loyihalar va ishlab chiqarish hajmlarining kengayishi natijasida yangi ishchi o'rinalari yaratilmoqda, xodimlar doimiy malaka oshirish kurslariga jalb etilmoqda.

Yuqoridagi bo'layotgan o'zgarishlar nafaqat, neft-gaz sanoatining, balkim mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishiga katta hissa qo'shadi. Bu o'zgarishlar natijasida neft-gaz sohasida va sanoatda xalqaro aloqalar o'rnatishga, eksport salohiyatini oshirishga hamda aholining gaz bilan ta'minlaganlik darajasini oshirishga ham yordam beradi.

Xulosa va tavsiyalar

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, "UzTransGaz" AJ so'nggi yillarda moliyaviy jihatdan murakkab bosqichlarni boshdan kechirgan bo'lsa-da, 2023-yilda moliyaviy ko'rsatkichlarning ijobiy tomonga keskin o'sishi korxonaning tiklanayotgan salohiyatidan darak beradi. Ayniqsa, sof foya va kapital rentabelligi bo'yicha erishilgan yutuqlar kelajak uchun katta imkoniyatlarni ochib beradi. Biroq yuqori qarzdorlik va moliyaviy beqarorlik xavfi hali ham saqlanib qolmoqda.

Shu boisdan, quyidagi tavsiyalarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

1. Qarzdorlikni kamaytirish siyosatini kuchaytirish – uzoq muddatli moliyaviy barqarorlikni ta'minlaydi.

2. Investitsiyalarni samarali boshqarish – kapital rentabelligini barqaror saqlash va foya marjasini oshirish imkonini beradi.

3. Ichki boshqaruv tizimini raqamlashtirish va avtomatlashtirish – xarajatlarni kamaytirib, samaradorlikni oshiradi.

4. Diversifikatsiya siyosatini kuchaytirish – eksportga qaramlikni kamaytiradi va ichki bozorning salohiyatidan to'liq foydalilanadi.

5. Kadrlar salohiyatiga sarmoya kiritish – doimiy o'sishni ta'minlaydigan ilg'or boshqaruvni shakllantiradi.

Tavsiyalarni tizimli amalga oshirish natijasida "UzTransGaz" AJda quyidagi ijobiy o'zgarishlar kuzatilishi mumkin:

Sof foyda darajasi barqaror 20–30% atrofida ushlab turiladi, bu esa investorlar uchun ishonchli moliyaviy ko'rsatkich hisoblanadi.
Kapital va aktivlar rentabelligi 15–25% oralig'ida barqarorlashadi, bu esa kompaniya samaradorligini ko'rsatadi.
Qarz nisbati 70% dan past darajagacha tushiriladi, bu likvidlik va moliyaviy mustaqillikni oshiradi.
Moliyaviy risklar kamayadi, bu esa ichki investitsion loyihalarning kengayishiga imkon yaratadi.
Kompanianing xalqaro bozordagi nufuzi ortadi, hamkorlik salohiyati kuchayadi

REFERENCES

1. Baymukhamedova Gulnoza Fattakhovna: Improvement of marketing technologies in enterprises of the food industry. (2025). Western European Journal of Historical Events and Social Science, 3(02), 77-79.
2. Baymukhamedova Gulnoza Fattakhovna: Korxonaning raqobatbardoshligini oshirishda marketingning roli // “TADQIQODLAR” jahon ilmiy-metodik jurnal №2 (56). 224-227
3. Г.Ф. Баймухамедова Инновационная маркетинговая деятельность, как фактор развития конкуренции промышленности // Science and innovation, 2024 №3. ст. 204-205
4. Baymukhamedova Gulnaz Fattakhovna: Marketing innovations in the bakery industry in the conditions of formation of sustainable competitiveness // Vol. 12 No. 06 (2023): ASIA PACIFIC JOURNAL OF MARKETING & MANAGEMENT REVIEW
5. Baymukhamedova Gulnaz Fattakhovna: The role of small business and private entrepreneurship in economic development // Vol. 11 No. 03 (2022): ASIA PACIFIC JOURNAL OF MARKETING & MANAGEMENT REVIEW